

## UNIONPAY TO'LOV TIZIMI KARTASINING ISTIQBOLLARI

O'rino O'rinov Komiljon Tolibjon o'g'li

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

*"Bank ishi va audit" yo'nalishi 2-bosqich, talabasi*

*Email: Legendaryhero150@gmail.com*

### ABSTRACT

Ushbu maqolada to'lov tizimida kartalarning xususiyatlari, Visa va MasterCard kartalarini o'rnini egallay oluvchi Xitoy to'lov tizimi, UnionPay kartalari tijorat banklardan emmisiya qilinishi haqida ko'rib chiqilgan.

This article discusses the features of cards in the payment system, the Chinese payment system, which can replace Visa and MasterCard, and the issuance of UnionPay cards from commercial banks.

В данной статье рассматриваются особенности карт в платежной системе, китайская платежная система, которая может заменить Visa и MasterCard, а также выпуск карт UnionPay коммерческими банками.

Ключевые слова:

### KEY WORDS

Xitoy to'lov tizimi, UnionPay, Uzcard, chakana savdo, bankomat, onlayndo'konlar, onlayn-servislar, tijorat bank, kobeydj karta

Chinese payment system, UnionPay, Uzcard, retail, ATM, online stores, online services, commercial bank, kobeidj card. китайская платежная система, UnionPay, Uzcard, розница, банкомат, интернет-магазины, интернет-сервисы, коммерческий банк, карта kobeidj.

### KIRISH

2002 yilda UnionPay va Xitoy to'lov tizimiga asos solingan. Hozirgi kunga kelib bu to'lov tizimida kartalar dunyo bo'yicha 180 ta davlatida qabul qilinadi. Dunyoda 197 ta mamlakatlar ichidan 91% davlatlar Xitoyning UnionPay xalqaro kompaniyasi xizmatlaridan foydalanishadilar.

Reklamalarning ushbu kompaniyaga ta'siri quyidagicha, masalan, UnionPay kartalari Italiyadagi nufuzli banklarning 50% bankomatlari orqali qabul qilinadi. Ushbu reklama Gretsiya mamlakatida 95% mahalliy savdo markazlarida xaridlar qilish imkonini beradi. Xorijda UnionPay plastik kartalaridan bankomatlar naqd pulni yechish yoki ushbu karta orqali to'lovlar qilishda bank mijozlari muammolarga duch kelishadi.

Xitoy to'lov tizimi ba'zi mamlakatlarda faqat sanoqli banklar hamda chakana savdo markazlarida amalga oshiriladi. Stikerli do'konlar yoki bankomatlarni qidirish anchagina qiyinchiliklarga duch

keladi. Ba’zida do‘konlarda tegishli stiker bo‘lishidan qat’iy nazar to‘lov qilgan operatsiyamiz rad etilishi mumkin. Va shu vaziyatda xorijiy online-do‘konlarda hamda online-servislarda ushbu kartalardan foydalanilgan taqdirda ham xatoliklar vujudga kelishi ehtimoli mavjud. Kartadan foydalanish orqali, karta ishlayotgani va aktiv holatda emas ekanligini bilishimiz mumkin.

**1-jadval UnionPay kartalari hozirda O‘zbekistonda quyidagi banklar emissiya qiladi:**

Bank nomi	Karta turi	Karta chiqarish, so‘m	Sug‘urta depoziti
Agrobank	UZCARD-UnionPay	45 000	108 000 so‘m
Aloqabank	UZCARD-UnionPay	25 000	0
Asia Alliance Bank	UnionPay Classic	30 000	10\$
Davr Bank	UnionPay Classic	0	0
	UZCARD-UnionPay	30 000	0
Hamkor Bank	UnionPay Classic	30 000	10\$
	UZCARD-UnionPay	35 000	0
Invest Finance bank	UnionPay Classic	35 000	10\$
Ipak Yo‘li bank	UnionPay Exchange	0	10\$
	UnionPay Classic	0	0
	UnionPay Gold	60 000	0
	UnionPay Classic безконтактная карта	60 000	10\$
	UnionPay Platinum	210 000	50\$
Mikrokreditbank	UZCARD-UnionPay	35 000	0
Orient Finans bank	UnionPay Classic	50 000	5\$
O‘zsanoatqirilishbank	UnionPay Gold	0	5\$
Poystaxt bank	UZCARD-UnionPay	45 000	0
Qishloq qurilish bank	UnionPay Classic	25 000	0
Savdogarbank	UZCARD-UnionPay	35 000	0
Universalbank	UZCARD-UnionPay	25 000	0
Xalq banki	UZCARD-UnionPay	30 000	0

Yuqoridagi jadvalda shuni ko‘rishimiz mumkinki, bankomatlardan xalqaro kartalardan foydalangan holda naqd pul yechib olishimiz imkoniyati mavjudligini ko‘rishimiz mumkin, hamda turli turdagiga to‘lovlarni amalga oshirishimiz yoki xarid qilish imkoniyatini beradi. Jadvalda to‘lov tizimiga qaramay kartalar – premium, oddiy, virtual va elektron kartalarga ajraladi. Elektron ravishda virtual karta ochiladi, shu bois virtual kartalardan terminallarda, bankomatlarda foydalanishini imkon yo‘q. Virtual kartaning afzalliklari quyidagilardan iborat – rasmiylashtirish juda oson va past narxlanadi.

Mobil ilova orqali, uydan baklarga bormagan holda buyurtma berish imkonи mavjud. Va ular 10\$dan ko‘p bo‘lmagan kuymaydigan depozitda bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

“O‘zmilliybank” hamda “Hamkorbank”da birinchi karta ochishda bepul amalga oshirsa bo‘ladi. Ularda 5\$da kuymaydigan depoziti mavjud, Hamkorbankda ro‘yxatdan o‘tishning o‘zi 35000 so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa ham unda sug‘urta depoziti mavjud emas.

## XULOSA

UnionPay kartalari mamlakatimizda yaqindan beri muomalaga kiritildi. Xitoy mamlakatimizning eng asosiy savdo hamkorlari hisoblangani uchun ushbu kartalar allaqachon mashhurlikka chiqqan. O‘zbekistonda UnionPay kartalarini tijorat banklarning katta qismi Uzcard kartalari bilan kobeydjing kartalar ko‘rinishida emissiya qiladilar. Bunday kartalar aholi uchun juda qulay hisoblanadi, chunki mijozlar o‘z mamlakatlarida hamda xorijda ham bemalol foydalana olishadi.

## FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alikulov, A. T., & O‘rinov, K. (2022). O‘ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 690-695.
2. Komiljon, O. (2022). O‘ZBEKISTONDA BANK PLASTIK KARTALARI VA XALQARO TO’LOVLAR TIZIMLARDAN FOYDALANISHNING ASOSIY TAMOYILLARI. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 219-221.
3. O’g‘li, O. K. T. (2022). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HAMDA ASOSIY SAVDO-HAMKOR DAVLATLARNING MILLIY VALYUTASINING REAL ALMASHUNUV KURSI QADRSIZLANISHI VA MAMLAKATLARNING AQSH DOLLARIGA NISBATDAN DINAMIKASINI O‘ZGARISHI. *Science and innovation*, 1(A3), 75-78.
4. Diyorova, M., & Komil, U. (2022). TYPES OF BANKING SYSTEM IN UZBEKISTAN. *Conferencea*, 462-466.
5. Alikulov, A. T., Iskandarovich, R. R., & Komiljon, O. (2022). O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING BARQAROR FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI BANK HIZMATLARINI JORIY ETISH. *Results of National Scientific Research*, 1(2), 62-67.
6. Yakubova, Sh. Sh., Rashidov, R. I., Umarova, M. X., & Urinov, K. T. (2022). Ways of effective implementation of monetary policy in our country. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 03 (107), 859-864. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-03-107-64> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2022.03.107.64>